



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 19-fevral

VII-6-19-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga 2024-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar, sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilgan ommaviy sayyor qabullar tahlili to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvaridagi "Aholi muammolari bilan ishlash tizimining yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5633 sonli Farmonini ijrosini ta'minlash maqsadida Kattaqo'rg'on tumanda yashovchi fuqarolaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual hamda Xalq qabulxonasi orqali 2024-yil davomida Xalq qabulxonasi, sektorlar va tashkilot rahbarlarining aholi murojaatlari va muammolari bilan ishlash faoliyati yuzasidan tuman Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning axborotini tinglab, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi"gi Qonuning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga 2024-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar, sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilgan ommaviy sayyor qabullar tahlili to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kattaqo'rg'on tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Abdullayevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari, tuman hokimining o'rinosarlari hamda tuman korxona va tashkilotlar rahbarlariga: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvaridagi "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5633-sonli farmonidan kelib chiqib, quyidagilar tavsiya etilsin;

- tumandagi fuqarolardan kelib tushayotgan har bir murojaatni O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ko'rib chiqilishini, murojaatlarda ko'rsatib o'tilgan masalalar tegishli mutaxassislar tomonidan to'liq va sifatli o'r ganib chiqilib, ijobiy hal etilishini ta'minlash;

- har bir murojaat ijro etuvchi tashkilot va idora rahbarlarining nazoratida bo‘lishi, takroriy murojaatlarning oldini olish maqsadida murojaatlarni mualliflar ishtirokida ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish;

- hududlarda o‘tkaziladigan sayyor qabullarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida, qabullarga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rib, aholini o‘tkaziladigan qabul haqida xabardor etish orqali jalg qilish hamda qabullarda kelib tushgan murojaatlarni joyida ijobiy hal etish shu bilan birga nazoratga olingan murojaatlarni ijrosini to‘liq ta’minlash;

-og‘ir hududlardagi aholini qiynab kelayotgan hamda ijtimoiy soha va boshqa obyektlarda aniqlangan dolzARB muammolarni aniqlash va hal etish choralarini ko‘rish;

-og‘ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar, yoshlar bo‘yicha uchrayotgan muammolarni hal etilishi va aholini bandligini ta’minlash bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rish; hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa obyektlarni o‘rganish orqali muammolarni aniqlash va hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko‘rish, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishni ta’milansin;

-aholi murojaatlari va muammolari eng ko‘p tushgan mahallalarda Xalq qabulxonasi bilan birgalikda mahalla yettiligi va tegishliy tashkilot rahbarlari ishtirokida sayyor qabullar o‘tkazib borilsin;

-mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tumandagi barcha korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga fuqarolar tomonidan yo‘llangan murojaatlari O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida amaldagi tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilishiga shaxsan mas’ulligi ko‘rsatib o‘tilsin;

-mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, hokim yordamchilari, xotin qizlar faollari, yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining fuqarolar murojaatlari bilan ishslash ko‘nikmalari va bilimlarini oshirish maqsadida mahallalarda O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun mohiyatini o‘rgatish maqsadida seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish;

-har bir mahalla fuqarolar yig‘ini binolarida fuqarolar ko‘rishi uchun qulay joylarga sektor rahbarlari, kotiblari, tashkilot va idora rahbarlarining telefon raqamlarini joylashtirish orqali, fuqarolarga to‘g‘idan to‘g‘ri murojaatlarni hal etishga mas’ul bo‘lgan rahbarlarga murojaat etish imkoniyatini yaratish vazifalari yuklatilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Teshayev) tuman qurulish va uy-joy communal xo‘jaligi bo‘limi (D.Mo‘minov), Kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi Samarqand viloyati boshqarmasi Kattaqo‘rg‘on tumani filiali (F.Ibragimov), Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi (I.Tog‘ayev) murojaatlar bilan ishslashda sustkashlikka yo‘l qo‘yganligi sababli tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi muhokamaga kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman qurulish va uy-joy communal xo‘jaligi bo‘limi (D.Mo‘minov), Kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi Samarqand viloyati boshqarmasi Kattaqo‘rg‘on tumani filiali (F.Ibragimov), Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi (I.Tog‘ayev) murojaatlar bilan ishslashda sustkashlikka yo‘l qo‘yganligi yuzasidan ogohlantirilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Djurayev zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH